PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

VIRTUAL MULOQOT MUHITIDA O‘ZBEK TILI GRAMMATIKASI: INQIROZ VA UNING IJTIMOIY-LINGVISTIK OQIBATLARI

Mehmanova Feruza
Andijon davlat chet tillari instituti
Filologiya va tillarni
o‘qitish: Arab tili yo‘nalishi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24133808

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va virtual makonning rivojlanishi sharoitida o‘zbek adabiy tili me’yorlarining buzilishi muammolari ijtimoiy-lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi o‘zaro yozishmalari, xabar almashish jarayonida yuzaga kelayotgan grammatik va imloviy savodsizlik holatlari, ko‘cha leksikasining adabiy til muhitiga suqilib kirishi aniq misollar orqali ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot natijalari hozirgi o‘zbek nutq madaniyatini asrash va yoshlar o‘rtasida ona tiliga bo‘lgan hurmatni oshirishda muhim ahamiyatga ega.
Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, ijtimoiy-lingvistik inqiroz, virtual muloqot, ko‘cha leksikasi, grammatik norma, imlo xatolari, yoshlar nutqi.

Аннотация: В данной статье социально-лингвистически анализируются проблемы нарушения норм узбекского литературного языка в условиях глобализации и развития виртуального пространства. На конкретных примерах показаны случаи грамматической и орфографической безграмотности, возникающие в процессе взаимной переписки и обмена сообщениями молодежи в социальных сетях, а также проникновение уличной лексики в литературную языковую среду. Результаты исследования имеют важное значение для сохранения современной узбекской культуры речи и повышения уважения к родному языку среди молодежи.

Abstract: This article analyzes the problems of violation of Uzbek literary language norms in the context of globalization and development of virtual space from a socio-linguistic point of view. Cases of grammatical and spelling illiteracy arising in the process of mutual correspondence and messaging of youth in social networks, as well as the penetration of street lexics into the literary language environment are shown through concrete examples. The results of the research are of great importance for preserving modern Uzbek speech culture and increasing respect for the native language among youth.

Til insoniyatning o‘z fikrini, his-tuyg‘ularini va madaniyatini ifodalashda, uni kelajak avlodga yetkazishda eng asosiy poydevor hisoblanadi. Har bir milliy til o‘zining qat’iy grammatik, leksik va imloviy qoidalariga ega bo‘lib, ularni saqlash til sohiblarining muqaddas burchidir. Biroq, bugungi texnologiyalar asrida o‘zbek tili muhitida, ayniqsa yoshlar nutqida jiddiy xavotirlarni keltirib chiqaradigan lingvistik o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmoqda. Internet platformalari, Telegram, Instagram

va boshqa ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning muloqot markaziga aylanishi oqibatida adabiy til me'yorlari ikkinchi darajaga tushib qolyapti.

Yoshlar nutqining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda muloqot tizimida adabiy til va kitobiy iboralardan uzoqlashish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Yosh avlod vakillari o'z fikr-mulohazalarini, his-tuyg'ularini bayon qilishda milliy til xazinasidagi jozibador so'zlar o'rniga, ko'cha tili elementlaridan, sun'iy va o'zlashma iboralardan keng foydalanmoqdalar. Bu holat, ayniqsa, kundalik jonli nutqda va ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlarda yaqqol seziladi.

Eng achinarli jihati shundaki, yoshlar o'zaro muloqotda ishlatadigan ushbu kitobiy bo'lmagan, ko'cha leksikasiga xos iboralarni yosh kattalar, ya'ni ota-onalar va ustozlar eshitganda mutlaqo tushunmay qolmoqdalar. Masalan, yoshlar nutqidagi ijobiy ma'no anglatuvchi ba'zi iboralar yoki g'alati qisqartmalar katta avlod vakillarida faqat salbiy tasavvur uyg'otadi. Bu lingvistik xilma-xillik emas, balki til madaniyatining buzilishi va estetik jihatdan nutqning nihoyatda xunuk eshitilishiga sabab bo'ladi. Adabiy til me'yorlariga bo'ysunmaydigan bunday "ko'cha shevasi" oilada va jamiyatda avlodlararo ma'naviy muloqot uzilishini (lingvistik inqirozni) yuzaga keltirmoqda. Fuqarolik madaniyati va nutqiy etika nuqtai nazaridan qaraganda, bu holat tilimizning sofligiga jiddiy zarba hisoblanadi.

Ushbu ijtimoiy-lingvistik muammoning oldini olish va o'zbek tilining sofligini saqlab qolish uchun, bizningcha, bir qator tizimli ishlarni amalga oshirish zarur. Birinchidan, asosiy e'tibor maktab ta'limiga qaratilishi, o'quvchi yoshlik davridanoq badiiy adabiyotlarni o'qishga yo'naltirilishi lozim. Maktab dasturlarida imlo xatolariga jiddiy e'tibor berish, til qoidalarini chuqur o'rgatish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda, jamiyatda kitobxonlik targ'ibotini yanada kuchaytirish, yosh kitobxonlarni turli tanlovlar orqali rag'batlantirish va ularni yirik ilmiy, badiiy asarlarni o'qishga jalb qilish muhim samara beradi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, xususan, televideniye orqali yoshlar nutqiga ta'sir ko'rsatish tizimini qayta ko'rib chiqish lozim. Buning uchun telekanallarda saviyali, ma'rifiy ko'rsatuvlar sonini oshirish, efirga uzatilayotgan har bir ko'ngilochar dasturning faqatgina sof o'zbek adabiy tilida bo'lishini ta'minlash darkor. Ushbu jarayonda Madaniyat vazirligi hamda tegishli mas'ul tashkilotlar tomonidan ko'ngilochar kontentlar tilining adabiy me'yorlarga mosligi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishi tildagi ko'chalashish va savodsizlik tendensiyasini jilovlashda katta qadam bo'ladi.

Ikkinchidan, muammoni zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida hal etish lozim deb o'ylaymiz. Bugungi kunda yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda qaysi tilda matn yozayotgan bo'lsa, o'sha matndagi xatolikni avtomatik ravishda to'g'rilaydigan va yozuvchiga qoidani o'rgatadigan maxsus tizimlar kerak. Sun'iy intellekt texnologiyalarini o'zbek tili grammatikasi xizmatiga safbar etish orqali ijtimoiy tarmoqlarda xato yozishlikka yo'l qo'ymaydigan dasturiy ta'minotlarni yanada takomillashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, virtual makonda o'zbek tili grammatikasi va nutq madaniyatining buzilishi shunchaki til muammosi emas, balki millat ma'naviyatiga daxldor global masaladir. Yoshlar nutqidagi ko'chalashish jarayonini jilovlash, ularni kitobsevar va savodli shaxs qilib tarbiyalash ham ta'lim tizimining, ommaviy madaniyat maskanlarining hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarning o'zaro uyg'unligini taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Akbarov A. (2015). O‘zbek tili grammatikasi. Toshkent: Fan.
2. Karimov B. (2018). Til taqqoslash asoslari. Toshkent: Universitet Nashriyoti.
3. Mahmudov N. (2017). Nutq madaniyati va davlat tili. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti.
4. Mengliyev B. (2020). Hozirgi o‘zbek tili: Lingvistik tahlil. Toshkent: Mumtoz so‘z.
5. Tojiyev Yo. (2019). O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati. Toshkent: Fan va texnologiyalar.